

## Aliment bo'yicha qo'yilgan O'zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklashni bekor qilish tartiblari

Bugungi kunda kundalik hayotimizda qarzdorlik sababli O'zbekiston Respublikasidan chiqishi vaqtincha cheklanganligi uchun norozi bo'lib yurgan fuqarolarni uchratishimiz mumkin. Bu boradagi cheklov aliment munosabatlaridan keldib chiqadigan qarzdorlikka nisbatan ham tatbiq qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 32-moddasiga muvofiq har kim O'zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistonga to'sqinliksiz qaytish huquqiga egaligi belgilangan. Shu bilan birga Konstitutsiyamizning 77-moddasiga ko'ra ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Oila Oila qonunchiligiga asosan voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majbu-riya-tini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota yoki onadan aliment sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan undiriladi. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" qonuniga asosan, xorijga chiqish uchun cheklov qo'yish - sud hujjatidagi talablar belgilangan muddatda qarzdor jismoniy shaxs tomonidan uzrsiz sabablarga ko'ra ijro etilmaganda, davlat ijrochisi undiruvchining arizasi bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan qaror asosida amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarmoqlarda ayrim fuqarolar tomonidan aliment qarzdorligi sababli, xorijga chiqa olmayotganligi haqida murojaatlar tez-tez uchrab turamiz. Jamiyatimizda oila qadriyatlariga yuzaki yondashish, er-xotinning o'zaro kelishmovchiliklari oqibatida ajralish holatlari yildan-yilga o'sib, aliment undirishga doir ijro hujjatlari sonini ortib ketishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ijro hujjatlarini ijro qilish imkoniyatining qiyinlashishi va murakkablashishiga olib keladi. Cheklov qo'yishdan eng asosiy sabablardan biri ham shu ya'ni ijro hujjatlarini o'z vaqtida ijro etilmasdan qolib ketishini oldini olish. Amaldagi qonunchiligimizga ko'ra cheklovni yechish uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 oktyabrdagi "Alimentlarni oldindan to'lash, shuningdek, aliment to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov shartnomasini tuzish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 808-sonli Qaroriga asosan tasdiqlangan nizomda alimentlarni oldindan to'lash yoki aliment to'lash majburiyatini ta'minlashda garov taqdim etish asoslari belgilab berilgan. Ushbu nizomga ko'ra cheklovni yechishni ikki xil usuli mavjud, birinchi usul voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun alimentlarni oldindan to'lash, hamda ikkinchi usul voyaga yetmagan bolalar, er (xotin), sobiq xotin (sobiq er) va boshqa mehnatga layoqatsiz shaxslar ta'minoti uchun aliment to'lash majburiyatini ta'minlashda garov shartnomasini tuzish. Birinchi usul ya'ni voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun alimentlarni oldindan to'lash orqali. Bunda qarzdor tomonidan undiruvchiga alimentlarni oldindan to'lash hisobiga ko'chmas yoki ko'char mulk yoxud boshqa qimmatli ashyo taqdim etilishi mumkin. Alimentlar summasini oldindan to'lash yoki alimentlar to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov taqdim etish faqat qarzdorning aliment to'lovlaridan qarzdorligi mavjud bo'lmaganda amalga oshiriladi. Alimentlarni oldindan to'lash yoki aliment to'lash majburiyatini ta'minlash uchun garov shartnomasining tuzilishi davlat ijrochisi yoki sud tomonidan qarzdor jismoniy shaxsning ilgari belgilangan O'zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklashni olib tashlash uchun asos hisoblanadi. Alimentlarni oldindan to'lash bola voyaga yetguniga qadar har qanday davr uchun besh yildan kam bo'lmagan muddatga amalga oshiriladi. Biroq alimentlarni oldindan to'lash vaqtida agar bolalar voyaga yetguniga qadar bo'lgan davr 5 yildan kam bo'lsa, alimentlarni oldindan to'lash qolgan davr uchun amalga oshiriladi. Ikkinchi usul aliment to'lash majburiyatini ta'minlashda garov shartnomasini tuzish. Bu usulda ham yuqorida keltirib o'tilgan holatga o'xshab qarzdor tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda ijro hujjatini bergan sudga ijro hujjatini ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risida ariza bilan murojaat qiladi. Faqatgina bu holatda tuzilgan garov shartnomasi, shuningdek, Byuro tomonidan aliment to'lovlaridan qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma ilova qilinishi shart. Garov shartnomasi qarzdor va undiruvchi o'rtasida aliment to'lash majburiyatini garov bilan ta'minlash va aliment majburiyatlari ikki oydan ortiq muddat davomida bajarilmagan taqdirda undiruvchiga undiruvni garov predmetiga qaratish huquqini berish uchun tuziladi. Har qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov predmeti bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan, hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno. Aliment to'lash majburiyatini garov bilan ta'minlash to'g'risidagi garov shartnomasi notarial tartibda tasdiqlanishi va tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Garov qiymati qonunchilikda belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ellik baravaridan kam bo'lmashligi lozim. Bugungi kunda amaldagi bazaviy hisoblash miqdori bo'yicha hisoblanganda garov qiymati 85.000.000 (340.000\*250) so'mni tashkil etadi. Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash juda muhim hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarga o'z vaqtida ta'lim tarbiya berish shaxsning to'g'ri o'sib-ulg'ayishini ta'minlaydi, buning uchun moddiy yordam eng asosiy vositadir. Amalga oshirilayotgan bu kabi cheklovlar o'z navbatida sud hujjatlarini ijrosini ta'minlash hamda mana

---

shu voyaga yetmagan farzandlarning moddiy ta'minoti uchun to'lanayotgan alimentlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash uchun joriy qilingan. Shu bilan birga qarzdor shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilgan xolda ularga yuqoridagi kabi cheklovlarni qonuniy yechish bo'yicha imkoniyatlar berilmoqda.

**Yo.To'ychiev,**  
**Fuqarolik ishlari bo'yicha**  
**Rishton tumanlararo sudining sudyasi**

2024-09-23 10:19:01